

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
9 май
№ 19 (960)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



“MSITF – 2024” ФЕСТИВАЛИ

Пойтахтимиздаги “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуасида ташкил этилган мудофаа соҳасида инновацион технологиялар фестивалида Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев иштирок этди.

Мудофаа вазирлиги ташаббуси билан ўтказилган “MSITF – 2024” амалий кўргазмасида ФВВ учун ҳам алоҳида жой ажратилган бўлиб, унда вазирлик томонидан ишлаб чиқилган лойиҳа, илмий ишланма ва инновацион ғоялар намойиш этилди. Қолаверса, Қуролли Кучларга зарур бўлган замонавий технологиялар, металлургия, кимё саноати ҳамда тўқимачилик соҳасида икки мақсадга мўлжалланган 20 га яқин ишлаб чиқарувчи йирик корхоналар, 50 та ташкилот, 30 дан ортиқ ишлаб чиқарувчи жисмоний шахслар ва ихтирочилар ўз маҳсулотлари билан иштирок этди.

Тақдимотда танлаб олинган энг яхши маҳсулот ва корхоналар истиқболда Мудофаа саноати агентлиги

билан ҳамкорлик қилиш имкониятига эга бўлди.

Шунингдек, фестивал доирасида 7 та тур бўйича, яъни “Робототехника”, “Киберспорт”, “Дронрейсинг”, “ЗД моделлаштириш”, “Дронларни лойҳалаштириш ва дастурлаш” бўйича мусобақалар ўтказилди. Унда техника, алоқа, ахборот-коммуникация технологиялари, ўқув-техник воситалари, дастурий таъминот, авиация, учувчисиз учиш тизимлари, робототехника қурилмалари, тренажёр комплекслари, химоя воситалари, кимё технологиялари ва бошқа истиқболли йўналишлар бўйича ишланмалар ва маҳсулот прототипларини истиқболда қўллаш учун рақобатбардош лойиҳалар сараланди.

ЭХТИРОМ



Фавқулдда вазиятлар вазирлиги Марказий аппаратида Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев иштирокида “9-май – Хотира ва қадрлаш куни” муносабати билан хайрия тадбири ўтказилди.

Унда вазирлик тизимида узоқ йиллар хизмат қилган фахрийлар ва хизмат чоғида вафот этган ходимларнинг оила аъзоларига эҳтиром кўрсатилди.

Тадбирнинг иккинчи қисмида ФВВ Академияси қошидаги офицерлар тайёрлаш курсини тамомлаган бир гуруҳ ҳарбий хизматчига “лейтенант” ҳарбий унвонлари тантанали равишда топширилди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади. семинар ўтказилди. Унда

ВАТАНГА ҚАСАМЁД

Фавқулдда вазиятлар вазирлигига қарашли Махсус муҳандислик-қурилиш бошқармасининг барча ҳудудлардаги батальонларида “Ватанга қасамёд” тадбири бўлиб ўтди.



Хусусан, Қорақалпоғистон Республикасининг Нукус шаҳрида ташкил этилган тантанали тадбирда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Оролбўйи минтақасини барқарор ривожлантириш масалалари бўйича маслаҳатчиси генерал-лейтенант Т.Худайбергенов, Тахтакўпри туманида ўтказилган тадбирда Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Ш.Джурбаев, Мўйноқ туманида ташкил этилган тадбирда эса Муҳандислик муҳофаза ва қурилиш тиклаш ишлари бош бошқармаси бошлиғи полковник Н. Саидов ва Тошкент вилоятининг Чиноз тумани марказий стадионидаги тантанали маросимда Бош прокурор ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори адлия полковниги Б.Қудратходжаев, Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев ҳамда аскарларнинг ота-оналари иштирок этдилар.

Тантанали тадбирларда сўзга чиққанлар она юртни химоя қилишдек муқад-

дас бурчни бажаришга киришган муддатли ҳарбий хизматчиларни қутлашди. Ватанга қасамёд – ҳар бир ватанпарвар, юртсевар йигитнинг ўз Ватани ва халқига бўлган меҳру муҳаббати, садоқатининг ёрқин ифодаси экани эътироф этилди. Шунингдек, сўзга чиққанлар йигитларни ҳаётида бир марта бўладиган унутилмас кун муносабати билан табриклаб, уларга юксак ишонч билдиришди.

Таъкидланганидек, ғурур, садоқат ва ориятни энг олий қадрият, деб билладиган йигит учун бу шунчаки расмий тадбир эмас, балки йигитлик шаъни, ор-номусини ўртага қўйиб, ўз зиммасидаги масъулиятли ҳамда шарафли бурчни адо этишга бел боғлаш, аҳд-паймон қилиш маросимидир. Бугун Ватанга қасамёд қилаётган йигитлар юртимиз тараққиёти, фаровонлиги йўлида мардона хизмат қиладилар, албатта.

Қўтаринки руҳда ташкил этилган тантанали тадбирлар давомидаги концерт дастурлари йиғилганларда унутилмас таассурот қолдирди.

АМАЛИЙ СЕМИНАР

Фавқулдда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров раҳбарлигида “Аҳолининг сувда чуқиши билан боғлиқ нохуш ҳолатларнинг олдини олиш, республиканинг чўмилиш ҳавзаларида хавфсизлик ҳамда кичик ҳажмли кемалар ва улар турадиган базалар (иншоотлар)дан хавфсиз фойдаланишни таъминлаш” мавзусида кўргазмали ўқув-амалий

ФВВ, ИИВ, МГ, Тошкент шаҳар ФВБ, маҳаллий ҳокимият, дахлдор ташкилотлар ҳамда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вакиллари иштирок этдилар.

Семинарнинг амалий қисми “Фур Фулом” номидаги маданият ва истироҳат боғида ўтказилиб, унда акваторияларда пляжларни жиҳозлаш, чўкаётган фуқароларни қутқариш ва биринчи ёрдам кўрсатиш тадбирлари амалда намойиш этилди.

ҚОНУН МАЗМУН-МОҲИЯТИ

Навоий вилояти ФВБ “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” ўқитиш маркази мутахассислари иштирокида ФВБ Ўта муҳим ва тоифаланган объектларда ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бошқармаси “НКМК” АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг қуйи тизимлари профилактика ҳамда назорат бўлинмалари инспекторлари учун 3 кунлик ўқув машғулоти ташкил этилди. Машғулот давомида “Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ёнғинлар профилактикаси самарадорлигини оширишга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини мазмун-моҳиятини ўрганиш борасида фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Абдурозиқ БҮРИЕВ,
“НКМК” АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази бўлим бошлиғи, подполковник.
Сардор КАМОЛОВ,
инспектор, капитан.

ПРОФИЛАКТИК ТАДБИР

Самарқанд вилояти Ургут тумани ҳудудида жойлашган 61-ҳамда 2-умумтаълим мактабларида ўқитувчи ва ўқувчилар иштирокидаги тарғибот тадбирида республикамизда содир бўлаётган ёнғинлар ва уларнинг оқибатлари хусусида сўз юритилди. Шунингдек, ис гази, ботулизм ва турли хил уй шароитида тайёрланган ёки қадоқланган идишларда сақланаётган консерваланган идишлардаги исътемомла яроқсиз бўлган маҳсулотларни истеъмом қилмаслик юзасидан тушунчалар берилди. Шундан сўнг иштирокчи ёшлар саволларига атрофлича жавоб олишди.

Ўткир ЖАББОРОВ,
Ургут туман ФВБ Профилактика ва назорат бўлинмаси кичик инспектори,
катта сержант.

ҚИЗҒИН БЕЛЛАШУВ

Қарши ҳарбий прокуратураси ва куч тузилмалари ҳамкорлигида Китоб туманининг чегараолди ҳудуди “Кухсор” маҳалласида ватанпарварлик тадбири ташкил этилди.

Тадбирда ёшлар ва мактаб жамоалари ўртасидаги арқон тортиш, тош кўтариш беллашувлари қизғин тус олди.

Яқинда ғолибларга эсдалик совғалар топширилди.

Меҳриддин НАЗАРОВ,
Қарши ҳарбий прокурорининг ўринбосари,
адлия подполковниги.

ХОТИРА АЗИЗ

9-май “Хотира ва қадрлаш куни” муносабати билан Олмалик шаҳар 2-Ёнғин қутқарув қисмида узоқ йиллар намунали хизмат қилиб, соҳа ривожига улкан ҳисса қўшган, муносиб шогирдларни тайёрлаган марҳум ҳамкасбимиз, қисм бошлиғи вазифасини бажарган подполковник Эркин Буляшевнинг оила аъзолари ва яқинлари ҳолидан хабар олинди.

А.МИРЗАҚОДИРОВ,
Тошкент вилояти ФВБ кадрлар бўлими бошлиғи, майор.
А.ЮЛДАШЕВ,
Олмалик шаҳар ФВБ бўлими бошлиғи, подполковник.

ЭНГ ЯХШИ ЁШ КИТОБХОН

ФВВ Академиясида ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган олий таълим муассасалари курсантлари ўртасида “Энг яхши ёш китобхон” кўрик-танлови бўлиб ўтди.

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Тошкент шаҳар кенгаши билан ҳамкорликда ташкил этилган мазкур танловда Ўзбекистон Республикаси “Маънавият ва маърифат” маркази, экспертлар комиссияси аъзоси, жамоатчи маслаҳатчи, халқаро тоифадаги спикер, фалсафа фанлари доктори, профессор Жамила Шермухамедова, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ўқитувчилари Интизор Жуманиёзова, Акмал Икромов, Абдулла Маҳмадўстов, Ўзбекистон Республикаси ёшлар иттифоқи Тошкент шаҳар Кенгаши бўлим бошлиғи, Сарвар Исмоилов, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, Давлат хавфсизлиги хизмати академияси, Қуролли

Кучлар, ИИВ ҳамда ФВВ академиялари, Божхона қўмитаси Божхона институти, Мудофаа вазирлиги ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти ва Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти ҳарбий хизматчилари ва курсантлари иштирок этди.

Қизғин ва муросасиз кечган танлов натижаларига кўра, ДХХ академияси жамоаси “Энг яхши китобхон”, ИИВ академияси жамоаси “Топқир китобхон”, Қуролли кучлар академияси жамоаси “Ижодкор китобхон”, ФВВ академияси жамоаси “Илғор китобхон”, Жамоат хавфсизлиги университети жамоаси “Тарғиботчи китобхон” Божхона институти жамоаси “Зукко китобхон”, Мудофаа вазирлиги Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти жамоаси “Намунали китобхон”, Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти жамоаси “Ҳарбий китобхон” номинациялари бўйича ғолибликни қўлга киритдилар.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.
Рушана РАВШАН қизи,
ЎзЖОКУ талабаси.



УЧ АВЛОД МУЛОҚОТИ

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясига қарашли “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицейи ўқувчилари иштирокида “Уч авлод” учрашуви ўтказилди.

“Ватан – улуғ, бурч – муқаддас” шиори остида ўтган тадбирда фахрийлар ўз ҳаётини тажрибалари билан ўртоқлашдилар.

Мулоқот савол-жавобларга бой бўлди.

Тадбирда Тошкент ҳарбий прокуратураси вакиллари иштирок этди.

Шоҳруҳ ВАҲОБОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг ўринбосари,
адлия майори.

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Наманган вилояти ФВБ масъул ходимлари томонидан “Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда менинг бўлимим коррупциядан холи ҳудуд” мавзуси бўйича тадбир ўтказилди.

Уйчи туман ФВ бўлимли ҳарбий хизматчи ва хизматчилари учун ташкил этилган тадбирда порахўрлик, тамағирлик қилмаслик, ҳуқуқбузарлик ҳамда қонун бузи-

лиши, ҳар турдаги тақиқланган қимор ўйинлари ўйнамаслик, автотранспорт бошқараётганда йўл ҳаракати қоидаларига доим амал қилиб юришлари юзасидан тушунчалар берилди. Шунингдек, ижтимоий ролик ҳам намойиш этилди.

Ўткирбек КАЛОНОВ,
Наманган вилояти ФВБ ШХБ ходими,
подполковник.

ЎҚУВ

Миллий гвардия қўмондонлигида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик профилактикасига бағишланган мулоқот бўлиб ўтди.

Наманган вилояти ФВБда, вилоятнинг шаҳар ва барча туман ФВ бўлимларининг Давлат ёнғин назорати инспекторлари иштирокида “Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ёнғинлар профилактикаси самарадорлигини оширишга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг мазмун ва моҳиятини ўрганиш бўйича ўқув семинари ташкил этилди.

Ушбу тадбирда масъуллар томонидан қонунни амалиётга татбиқ этишда коррупциянинг олдини олиш ва унга қар-



ши курашиш, коррупцияга оид хавф-хатарлар, унга қарши курашиш чоралари, коррупцион жиноятларга жазо муқаррарлиги, жазо чоралари бўйича талаб ва таклифлар юзасидан маъруза қилинди.

Ўткирбек КАЛОНОВ,
Наманган вилояти ФВБ ШХБ ходими, подполковник.

Гулистон ҳарбий прокуратураси, Бекобод тумани ҳокимлиги, Ўзбекистон “Ветеран” жангчи-фахрий ва ногиронлари бирлашмаси ҳамкорлигида “Уч авлод” учрашуви ташкил этилди.

ҚАДР – МУҚАДДАС

“9 май – Хотира ва қадрлаш куни” муносабати билан ўтказилган ушбу тадбирда фахрийлар, жумладан, уруш қатнашчилари, Бекобод туманидаги “Хос” маҳалласи фаоллари, ўқувчилар ва ёшлар иштирок этди.

Сўз олганлар ватанпарварлик туйғусининг бемисл қудратини эътироф этиб, Иккинчи жаҳон урушида ота-боболаримиз кўрсатган жасорат, матонат ва қаҳрамонликларни хотирладилар.

Тадбир якунида иштирокчиларга эсдалик совғалар улашилди.

Фаррух ЖУМАЕВ,
Гулистон ҳарбий прокурори,
адлия подполковниги.

G'uzor tumanidagi 79-maktabda FV bo'limi xodimlari tashabbusi bilan tumanning 2-sektor yoshlari ishtirokida "Yoshlar bilan bir kun" loyihasi doirasida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

TAVSIYALAR BERILDI



Dastlab mutaxassislar va yoshlar o'rtasida erkin muloqot tashkil etilib, unda mutaxassislar qutqaruvchi kasbining nufuzi va mashaqqatlari haqida so'zlab, yoshlarning qiziqtirgan savollariga javob berishdi.

Profilaktik tadbirlar tumanning "Tinchlik" mahallasi bo'ylab xonadonbay tamoyili asosida davom ettirildi. Ayrim xonadonlarda aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etildi va fuqarolarga yong'in hamda is gazidan zaharlanish, botulizm kasalliklarining oldini olish bo'yicha muhim tavsiyalar berildi.

Sanjar NOROV,
G'uzor tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

YONG'INGA QARSHI HOLAT O'RGANILDI

"Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" munosabati bilan Mingbuloq tumanining "Nayman" mahallasidagi aholi yashash xonadonlarining yong'inga qarshi holati o'rganildi.

Tadbir davomida mahalladagi 398 ta aholi yashash xonadonlari o'rganilib, 705 nafar fuqaroga yong'in, chaqnash, is gazi va botulizm kasalligidan zaharlanish hamda boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlar yuzasidan yo'riqnomalar berildi.

Hakimjon HOJIMATOV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.
Dilshodbek MAMADJONOV,
Mingbuloq tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

MALAKA SINOVI

"Olot" chegara-bojxona postida "Respublikaga chegara postlari orqali kontrabanda yo'li bilan kirib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbalari olib kirilganda hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar chetdan kirib kelganda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Tadbirda viloyat FVB, IIB, Bojxona, SSB, Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi, "Sanoat xavfsizligi" Davlat qo'mitasi Buxoro hududiy boshqarmasi, Chegara qo'shinlari va Olot tumani hokimligi vakillari ishtirok etishdi. Amaliy va nazariy qismlarda kechgan tadbir 5 ta o'quv nuqtasida



bo'lib o'tdi. O'quv mashg'uloti bosqichma-bosqich olib borilar ekan, har bir xizmat xodimlarining jarayonlardagi faolliklari, kasb ko'nikmalari kuzatib borildi.

Bahodir RAMAZONOV,
Olot tumani FV bo'limi
boshlig'i o'rinbosari, mayor.



HAMKORLIK

Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB xodimlari tomonidan "Gazli" gazni qayta ishlash zavodida "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati va fuqaro muhofazasi tizimlarining FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Rustam BOBOYEV,
Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB bosh
inspektori, kapitan.

QURILISH OBYEKTLARIDA

Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi obyektlarida yangi qurilayotgan va qayta rekonstruksiya qilinayotgan va kapital ta'mirlanayotgan bino va inshootlarda, qurilish tashkilotlarida yong'inlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni to'la-to'kis ta'minlash choralari ko'rish va ushbu yo'nalishdagi ishlarni to'liq yo'lga qo'yish maqsadida, qurilish tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, bugungi kun talablarini e'tiborga olgan holda, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning tekshirilishi qonun doirasida yuqori organlar tomonidan hamkorlikda asosli ravishda ishlab chiqilgan buyruq hamda farmoyishlar, ko'rsatmalarda belgilangan talablar bo'yicha amalga oshirilib kelinmoqda.

Sherzod UROZOV,
Sho'rtan neft gaz qazib chiqarish
boshqarmasi OYOXTTEB P va NB



MUHOKAMA MARKAZIDA

Xorazm viloyati FVB rahbariyati o'ziga birlashtirilgan yoshlar bilan manzilli ishlash borasidagi tadbirlarini davom ettirib kelmoqda. Jumladan, Bog'ot tumanidagi 2-sektor hududiga kiruvchi 4 ta mahallaga birlashtirilgan yoshlar bilan manzilli ishlash maqsadida, mahalla yettiligiga kiruvchi tashkilotlardagi mas'ullar bilan birgalikda olib borilishi lozim bo'lgan tadbirlarning aniq va manzilli muhokamasi o'tkazildi.

Bunda avvalo, birlashtirilgan yoshlarni toifalarga ajratib olish hamda shundan kelib chiqqan holda har biri bilan alohida shug'ullanish zarurligi ta'kidlanib, bu borada bugungacha qilingan ishlar sarhisob etildi. Shundan so'ng yoshlarning jamiyatda o'zlarining mustahkam o'rinlariga ega bo'la olishlari uchun endilikda bajarilishi muhim bo'lgan vazifalar kelgusida, belgilab olindi.

Hojiakbar RUSTAMOV,
Xorazm viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i, leytenant.
Bekzod AZODOV,
Urganch shahar FV bo'limi
1-YQQ boshlig'i, katta leytenant.

MULOHAZA

Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish jarayonida yong'in xavfsizligi talablariga jiddiy ahamiyat qaratish lozim. Jumladan, yonuvchi qurilish materiallarini saqlash borasida ehtiyotkorlik talab etiladi. Shuningdek, maydoni 2 va undan ortiq gektarga teng qurilish hududida kamida ikkita qarama-qarshi tashkil etilgan kirish joylari bo'lishi shart. Yo'llar yilning barcha fasllarida yong'in-qutqaruv avtomobillari o'tishi uchun qattiq qoplamaga ega bo'lishi lozim. Kirish joyining eni 4 m.dan kam bo'lmasligi kerak.


Q. RIXSIYEV, Toshkent shahar FVB
DM inspektori, mayor.

OGOHLIK

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar hamkorligida o'tkazilayotgan tadbirlarda aholi turar-joylari, korxonalar, tashkilot va muassasalar, shuningdek, qurilish maydonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'inlarda insonlarni kuyish, tan jarohati olish va halok bo'lish holatlarining oldini olish bosh maqsad qilib olingan.

Har bir fuqaro, korxonalar va tashkilot rahbari beparvolikka berilmasligi, hamisha ogoh bo'lib, tegishli yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishlari lozim.

S.URAZIMBETOV,
Toshkent shahar FVB OYOXTTEB katta
inspektori, katta leytenant.



OFATLARDAN SAQLANING!

Bahor-yoz mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qor ko'chkisi, sel, toshqin, kuchli shamol va yer ko'chkisi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida, qator qoidalarga rioya qilishingizni so'rab qoramiz.

Tog'oldi va tog'li hududlarga borishdan avval kutilayotgan ob-havo ma'lumotlarini o'rganing, qor ko'chkisi va sel kelishi to'g'risida xabarlar berilganida safarni boshqa kungacha qoldiring.

Tog'li hududlarda harakatlanganda xavfli hudud qor ko'chkisi belgilari o'rnatilgan joylarga, shuningdek, maxsus o'rab qo'yilgan xavfli hududlarga kirmang.

Qor ko'chkisi va sel bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda asosan shaharlardan kelgan aholi yoki sayyohlar jabrlanadi. Mahalliy aholi esa hudud geografiasini yaxshi bilganligi bois xavfsiz harakatlarni amalga oshira oladi, shu sababli tog'li hududlarga borganda hududni yaxshi biladigan mahalliy aholining yo'l boshchiligi asosida harakatlaning.

O.CHINTASHEV,
FMI katta o'qituvchisi.

Namangan shahar FV bo'limi tomonidan "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlar profilaktikasi" kuni munosabati bilan shahar 1-sektor hududidagi "Objuvoz" mahallasida profilaktik tarbi o'tkazildi.

ZARUR KO'RSATMALAR

Unda hamkor tashkilotlar xodimlari tomonidan aholi yashash xonadonlarining yong'iniga qarshi holati o'rganildi.

Shuningdek, mahallada joylashgan tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash va sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha profilaktik ishlar olib borildi.

Iskandar NURALIYEV,
Namangan shahar FV bo'limi
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

TARG'IBOT

Uchko'prik tumani FV bo'limi tomonidan aholi va hududlarning xavfsizligini ta'minlash borasida 48 marotaba davlat tasarrufidagi obyektlarda, 132 marotaba tadbirkorlik subyektlarida, 478 ta ko'p qavatli uylardagi 4153 ta xonadonlarda 7318 nafar fuqaroga tushuntirish va targ'ibot tadbirlari olib borildi.

Mazkur profilaktik va targ'ibot tadbirlarida 382 ta kamchilik aniqlangan bo'lsa, 215 tasi soha xodimlari va tegishli mas'ullar yordamida bartaraf etildi.

Uchko'prik tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar davomida aholiga 1200 dan ortiq eslatma va targ'ibot materiallari, bukletlar, flayerlar tarqatildi.

A.QO'ZIYEV,
Uchko'prik tumani FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.
Z.ALIJONOV,
bo'lim inspektori, leytenant.

MAVSUMGA SHAYLIK

Shimoliy kon boshqarmasi obyektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi tomonidan yong'in xavfsizligi holati muhofaza qilinayotgan korxonalar va maskanlarda "Bahorgi-yozgi" mavsum davrida yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, korxonalar va maskanlarda buyruq va ish-rejalarda ishlab chiqarilgan bo'lib, ish-rejalarning har bir bandi o'z vaqtida sifatlari bajarilishi nazoratga olingan.

Tekshiruvlar davomida asosiy e'tibor bino va inshootlarga o'tkazilgan elektr sim va kabellardan xavfsiz foydalanish, maskanlarda yong'in xavfsizligi qoida-talablariga rioya etish, olovli ishlarni yong'in xavfsizligi qoidalari asosida o'tkazish va boshqa masalalarga qaratildi.

Javhar NURIDDINOV,
SHKB OYOXTTEB P va NB inspektori,
oddiy askar,
Alisher RAHMONOV,
kichik inspektor, odiy askar.



I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filialida tahsil olayotgan talabalar bilan navbatdagi profilaktik uchrashuv bo'lib o'tdi.

TASHABBUS

Tadbir davomida Mirzo Ulug'bek tumani FV bo'limi tomonidan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda talabalarni binodan evakuatsiya qilish, universitet fuqaro muhofazasi tuzilmasi a'zolari va professor-o'qituvchilar, talabalar hamda ishchi-xodimlarni favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlanishga tayyorlash borasida so'z yuritildi.

Shuningdek, oliygoh hovlisida yong'in-qutqaruv texnikalari namoyish etilib, neftni qayta ishlash korxonalarida yoki yoqilg'i mahsulotlari bilan ishlash obyektlarida yong'inlar sodir bo'lganda, ularni bartaraf etish ishlari tushuntirildi.

Sevinch MAHMUDOVA,
O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

MAHORAT DARSII

FVV Akademiyasida O'zDJTU "Ingliz tili amaliy fanlar-3" kafedrasini hamkorlikda navbatdagi mahorat darsi tashkil qilindi.

Mashg'ulotni FVV Akademiyasi "Tillar" kafedrasini katta o'qituvchisi podpolkovnik Malohat Badalbayerova ochib, bugungi kunda yoshlarning chet tillarni o'rganishiga katta e'tibor berilayotganligi, bu boradagi islohotlar va ularning samaralari haqida qisqacha to'xtaldi.



Mahorat darsi "Ingliz tili amaliy fanlar-3" kafedrasini o'qituvchisi, IELTS yo'riqchisi Farhodjon Boltaboyev tomonidan FVV Akademiyasining 2-batalion kursantlariga olib borildi.

Dars davomida kursantlarga ingliz tilida so'zlashishning oson va interfaol usullari o'rgatildi.

Mashg'ulot ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

O'z muxbirimiz.

"ZAMONDOSH" DA MASHG'ULOT

Namangan viloyati Kosonsoy tumani "Zamondosh" mahallasidagi 9-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashg'uloti o'tkazildi.

Maskan ma'muriyati va hamkor tashkilotlar bilan ishtirokchilarga qo'shimcha yo'riqnoma berilib, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, fuqarolar, o'quvchilar hayoti va xavfsizligini ta'minlashga oid tushuntirishlar olib borildi.

Mashqlarda 2-sektor hududidagi "Navro'z", "Ravot", "Obodon", "Chak", "Xonqo'rg'on", "Soy bo'yi", "Guzar" mahallalarining uyushmagan yoshlari hamda 9-DIMning 9-, 10-, 11-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Davron HAMIDOV,
Kosonsoy tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.

MAXSUS- TAKTIK O'QUV

"O'zbekneftgaz" AJga qarashli "Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi" "Ko'kdumaloq" majmuasida "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining hamkorligidagi harakatlari" mavzusida 6 bosqichdan iborat maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

O.RADJABOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bosh
inspektori,
kapitan.

Bugun alanga sabab yuz berayotgan fojialar, yong'inlarning oldini olish katta muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

BOLALARNI NAZORATSIZ QOLDIRMANG!

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan joylarda o'tkazilayotgan uchrashuvlarda yong'inlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ko'rgazmali tarzda namoyish etilmoqda.

Kattalar tomonidan vaqtda olib tashlanmagan chiqindi, axlatlar, qurilish ishlaridan so'ng qolib ketgan vagonlar, garajlar orqasida to'planib qolgan xazonlar bolalar diqqatini o'ziga tez tortadi. Oqibatda, bolalar gugurt o'ynab, o'zlari bilmagan holda katta yong'in kelib chiqishiga sabab bo'ladilar.

N.NODIROV, B.JURAYEV,
Qarshi tumani
FV bo'limi xodimi, mayor.

MA'NAVIYAT SABOG'I

Sergeli tumanidagi 264-umumta'lim maktabida 9-11-sinf o'quvchilari va shoir Bahodir Obid, FVV Birlashgan tahririya-ti mas'ul kotibi, jurnalist Anvar Qobilovlar ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifati bilan kurashmoq kerak" mavzusida ma'naviyat soati tashkil etildi.

Mashg'ulot davomida ijodkorlar tomonidan buyuk ajdodlarimiz jaholatga qarshi yuksak ma'naviyat, ilm-ma'rifati bilan kurashgan-

ligi hayotiy misollar vositasida tushuntirib berildi.

Shuningdek, tadbir davomida "Tinchlik qadri" nomli videorolik namoyish etildi.

Tadbir yakunida shoir Bahodir Obid o'z ijod namunalari bilan o'qib berdi. Uchrashuv o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Dildora ASHURMATOVA,
maktab direktori o'rinbosari,
Shahnoza RAHIMOVA,
kutubxonachi.

ESLATMA

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi Yong'in-qutqaruv otryadi navbatchi smenasi ishtirokida dovon hududida joylashgan mavsumiy dam olish maskanlari, oshxonalar, savdo majmualari va aholi yashash xonadonlari, odamlar gavjum bo'lgan obyektlar hamda "Oqtepa" massivida joylashgan harbiy qismda uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda yong'in o'chirish avtomobillarining turlari, suv olish nasoslaridan foydalanish, yong'in-

qutqaruv va avriya-qutqaruv asbob-anjomlarini ishlatish, ulardan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq vazifalar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning yashash xonadonlarida yong'inlarning oldini olish, gaz uskunalarini va boshqa elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalari qat'iy amal qilish bo'yicha yo'riqnoma berilib, eslatmalar tarqatildi.

B.ANORQULOV,
"Qamchiq" MQYOQB YOQO
komandiri, mayor



AEROPORTDA PROFILAKTIKA

“Nukus xalqaro aeroporti” MChJ ishchi-xizmatchilari bilan bahor-yoz mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va boshqa turdagi ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Unda himoya qobig‘i shikastlangan va o‘z himoyalash xususiyatini yo‘qotgan elektr kabel hamda simlardan foydalanmaslik, shikastlangan rozetkalar va ulanish qutilari,

yoqib-o‘chirish kalitlari va boshqa har xil nosozligi mavjud elektr uskunalardan foydalanmaslik, yong‘in xavfsizligi masalalarida mas‘uliyatni oshirish, yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat‘iy rioya qilish bo‘yicha tushunchalar berildi.

A.ATADJANOV,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB
OYXTEB inspektori, mayor.

Qora oqsoq (brutsellyoz) — turli xil yuqish yo‘llariga ega bo‘lgan, keng tarqalgan polietiolitik, zoonopronoz, o‘ta xavfli yuqumli kasallikdir. U organizmning bir qancha, asosan tayanch-harakati a‘zolarining hamda asab tizimining shikastlanishi, vujudning zaharlanishi va allergiyaning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, infeksiya jarayonining rivojlanishi, aksariyat holatlarda surunkali kechishi, ko‘p hollarda, keyinchalik bemorlarda nogironlikni keltirib chiqarishi mumkin.

QORA OQSOQDAN SAQLANING!

Kasallikning oldini olish uchun chorva mollari saqlanadigan molxonalarni toza saqlash kerak. Hayvonlar boqilgan joy, ularga ishlatilgan.

Asbob-uskunalarni zararsizlantiruvchi vositalar bilan himoyalash lozim. Hayvonlarga yordam berishga kirishgan kishi o‘ziga kasallik yuqtirmaslik uchun shaxsiy gigiyena va maxsus kiyimlardan foydalanishi zarur. Chorvachilik ishlari bilan shug‘ullanadigan insonlar, albatta, o‘zlarini qora oqsoq kasalligiga tekshirib turishlari shart.

Sarvar NARZULLAYEV,
Oqoltin tumani FV bo‘limi bo‘linma
boshlig‘i, leytenant.

Sardor MAHMUDJONOV, Sirdaryo viloyati
FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

YOMG‘IR SUVLARIDAN TOZALASH

Qisqa muddatda yoqqan yomg‘ir natijasida Namangan shahrining “Madaniy maorif”, “Yangiyo‘l”, “Barkamol avlod” mahalla fuqarolar yig‘inlaridan kelib tushgan murojaatlarga asosan aholi yashash xonadonlari hovlisi, yerto‘la va ko‘chalarda yig‘ilgan yomg‘ir suvlaridan tozalash ishlari olib borildi.

Boymurod OTABOYEV,
Namangan shahar FV bo‘limi
katta inspektori, kapitan.

BIRINCHILIK

Surxondaryo viloyati “Dinamo” JTSJK tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘rtasida sportning shahka turi bo‘yicha shaxsiy birinchi musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bahslarda viloyat FVB jamoasi birinchi o‘rinni egalladi.

J.JURAYEV,
Surxondaryo viloyati FVB
axborot xizmati boshlig‘i, kapitan.

NOQONUNIY QURILISH — KELITIRAR TASHVISH

Qurilish sohasini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda bunyodkorlikka mas‘ul tashkilotlar faoliyatini yuksaltirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim masalaga aylandi. Bunyod etilayotgan ko‘p qavatli turar-joylarda uchrayotgan noqonuniy qurilma yoki qurilishlar viloyatimizning boshqa tumanlarida ham yo‘q emas.

Bu kabi o‘zboshimchaliklarga barham berish uchun vazirlik hamda Qashqadaryo

viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi mutaxassislari hamkorligida obyektlarga chiqilib, nazorat-tahlil ishlari o‘tkazilmoqda. Ularning sa‘y-harakatlari bilan o‘zboshimchalik holatlariga barham berilyapti.

M.ASHUROV,
Sho‘rtan NGQChB OYXTEB boshlig‘i
o‘rinbosari — P va NB boshlig‘i,
mayor.

Milliy ma‘naviyatimiz, yuksak qadriyatlarimiz, madaniy merosimizni o‘rganish, mamlakatimizni har tomonlama asrab-avaylash va qadriga yetish, keyingi avlodlarga o‘rnak bo‘lish — har bir insonning burchidir.

AJDODLARGA SODIQ O‘G‘LON

Shu ma‘noda aytish kerakki, bugun O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimiga kiruvchi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida o‘zbegim o‘g‘lonlari ham ruhan, ham jismonan kamol topib, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lmoqdalar.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi 5-batalon kursanti Jasurbek Abumannopov ham ana shunday o‘g‘lonlardan biri bo‘lib, oliy harbiy ta‘lim dargohida a‘lo baholarga tahsil olib kelmoqda.

Lavhamiz qahramoni bilan akademiyadagi tahsil jarayoni, soha sirlarini o‘rganishdagi qiyinchiliklar, kelgusidagi maqsad-vazifalar xususida suhbatlashdik.

— **Harbiy sohaga qiziqishingiz qachondan boshlangan? Yoki oila a‘zolaringiz orasida harbiy bo‘lganlar bormi?**

— Har bir o‘zbek farzandining qalbida Vatan himoyachisi bo‘laman degan shahd bo‘ladi. Men ham qo‘shni akaning har kuni harbiy kiyimda ishga ketayotganini ko‘rib, havasim kelar edi. Kun kelib, men ham harbiy bo‘laman, harbiylik kiyim-boshini kiyaman, deb niyat qildim. Sport bilan muntazam shug‘ullanishni boshladim. Darstda qo‘shimcha harbiy tayyorgalik haqidagi kitoblarni o‘qishga tushdim.

Bolalik paytlarimda televizorda zilzila, yong‘in sodir bo‘lganda qutqaruvchilik ishlari olib borayotgan xodimlarni ko‘rib, ulardagi fidoyilik, o‘z jonini xavfga qo‘yib bo‘lsa-da, insonlarning hayotini saqlab qolganliklaridan hayratga tushardim. Shuning ta‘siri bo‘lsa kerak, o‘z oldimga qutqaruvchi bo‘laman, deya maqsad qo‘ydim.

Maktabni tamomlab, kollejda ham yong‘in o‘chirish sohasida tahsil oldim. Ishtiyogim juda baland va faqat oldinga, harbiylik oliygohiga kiraman deya harakat qilar edim. Ota-onamga o‘g‘lingiz harbiy bo‘ladi, oq fotiha bering deb, ularning duolarini oldim va FVV Akademiyasiga kirish imtihonlarini topshirdim.

Imtihon natijalari kutganimdan ham a‘lo bo‘ldi. Inson oldinga astoydil intilib, harakat qilsa, o‘z maqsadiga yetar ekan. Mana, bugun ofitserlikka ilk qadamimni tashladim. Xalqimning, oilamning tinchligi biz posbonlar qo‘lida. Bobolarimizning orzulari bugun ro‘yobga chiqmoqda.

— **Akademiyada kursantlar uchun yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanasizmi?**

— Men badiiy kitob shaydosiman. Bo‘sh qoldimmi, qo‘limga badiiy kitob olib, o‘zimni asar qahramoniga aylantiraman. Ko‘proq tarixiy, didaktik, mumtoz asarlarni mutolaa qilaman. Sababi tariximizni bilamy turib, kelajagimizga poydevor qurish qiyin. Jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyotini bir-biriga taqqoslab chiqaman. Madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari, ibosi mutlaqo boshqa olam ekan. Inson



o‘qigan narsasini tasavvur qilishi kerak.

Shu bilan birga, sport bilan muntazam shug‘ullanaman. Tananing quvvati, salomatlik garovi, bu — sportdir. Biz yoshlarga Yurtboshimiz tomonidan ulkan imkoniyatlar yaratilgan. Zamonaviy texnologiyalar, yangi texnikalar, kompyuter savodxonligi... Bunga misollar juda ko‘p. Akademiyada kitobxonlik, ma‘naviy-ma‘rifiy kechalar, badiiy uchrashuvlar ko‘tarinki kayfiyatda hamda yuqori saviyada o‘tkaziladi. Ushbu tadbirlarda bilmagan narsalarimizni so‘rab, o‘rganamiz.

— **Siz Akademiyada bugungi kunga qadar nimalarni o‘rgandingiz?**

— Avvalo, o‘rgangan narsam bu tartib-intizom. O‘zini tutish, madaniyat, ozodalik, insonlar bilan chiroyli muomala-muloqot qilish harbiyning asosiy fazilatlaridan bo‘lishi kerakligini angladim.

Tartib-intizom bo‘lmagan joyda halovat, tinchlik bo‘lmaydi. Yigit kishini harbiylik kasbi qisqa muddat ichida tarbiya qilarkan. Shundan kelib chiqqan holda, men ham bugun Akademiyada nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallashga, o‘z kasbimning yetuk mutaxassisi bo‘lishga harakat qilmoqdaman.

— **Sohangiz taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan takliflar va ularni amalga oshirish haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?**

Qachonki, biz ilmi, o‘z kasbimizning yetuk mutaxassisi bo‘lsak, sohamiz rivoj topadi va yuksalib boradi. Biz ham o‘z sohamiz yo‘lida halol, so‘nggi nafasimiz qolguniga qadar fidoyilik bilan xizmat qilsak, yangi izlanishlardan to‘xtamasak, o‘z ustimizda muntazam ishlasak, rivojlanishda davom etamiz.

Yoshlarimiz izlanishdan, o‘qishdan hech qachon to‘xtamasligi, qiziqqan sohasini tanlab, bu yo‘lda bardavom bo‘lishlari lozim.

Men bugun Akademiyani bitirish ostonasida turibman. Ofitserlik sari intilishim, yetuk kadr bo‘lishim, xizmat faoliyatimni erkin boshlashim, oilam bag‘rida bo‘lishim menga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.

Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligi posbonlarimiz qo‘lida. Men esa ushbu safda ekanligimdan baxtiyorman.

R.ROZABOYEVA,
O‘zJOKU talabasi.

Yangiqo'rg'on tumanidagi "Aminjon Xalima tekstil" MCHJ hududida 3 bosqichdan iborat "Zilzila natijasida favqulodda vaziyatlar ro'y berganda obyekt rahbariyati va qutqaruv tuzilmalarining harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.



TUZILMALAR HARAKATI

Mazkur tadbir davomida sodir bo'lgan zilzila natijasida jabrlangan ishchi-xodimlarni xavfsiz joyga olib chiqishda tuzilmalar shaxsiy tarkibining hamda jabrlangan ishchi-xodimlarga tibbiy yordam ko'rsatish guruhi harakatlari kuzatildi.

O'tkazilgan o'quv mashqi davomida barcha xizmatlar o'z oldiga qo'ygan vazifalarini haqqoniy olib bordilar.

S.OBIDDINOV,
Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, leytenant.
Sh.JUMANALIYEV,
A va HMQB bo'limi inspektori, kichik serjant.

KO'RINMAS QOTIL

Is gazi – ko'zga ko'rinmasligi hamda ovoz chiqarmasligi sababli insonlar e'tiboridan chetda bo'lgan ushbu zaharli birikma o'ziga xos xususiyati sababli salbiy ta'sir ko'rsatib, insonlarni uyquga tortishi, bosh aylanishi, hushni yo'qotishi, ko'z oldining qorong'ulashishi, eshitish qobiliyatining pasayishi, nafas olishning og'irlashishi, yo'tal va boshqa nojo'ya ta'sirlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlar sodir bo'lganda darhol insonlarni xavfsiz joyga olib chiqish, mutasaddi tashkilotlarga xabar berish va xonalarni shamollatish lozim bo'ladi. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun xonadonlardagi isitish moslamalarini har mavsumda mutaxassislar ko'rigidan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

D.POLVANOV,
Shovot tumani FV bo'limi profilaktika va nazorat inspektori, leytenant.

UCHRASHUV



TASHVIQOT

Xo'jaobod tumanidagi 14-sonli umumta'lim maktabida "Aholi o'rtasida ovqatdan ommaviy zaharlanishlar va botulizm kasalligining oldini olish chora-tadbirlari samaradorligini oshirish" mavzusida ko'rgazmali o'quv seminari o'tkazildi.

Tadbir davomida sanitariya nazorati, profilaktik chora-tadbirlar, tushuntirish ishlari, suhbatlar

hamda ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi, taklif va tavsiyalar berildi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga e'tibor berish, yaroqli muddatlari, saqlanish sharoitlari hamda iste'mol uchun tayyorlanish joylari namoyish qilindi.

Sh.HAKIMOV,
Xo'jaobod tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

YANGI OSHXONA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng vatanimizning iqtisodiy salohiyati jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Shahar va tumanlarimiz, qolaversa, olisdagi qishloqlarimizning ham ko'rkiga-ko'rk qo'shilmoqda. Bunga misol qilib yangi qurilayotgan zamonaviy bino va inshootlardir. Ushbu bino va inshootlar jahon standarti talablari asosida barpo etilishi zarur.

Ushbu qurilish me'yorlari O'zbekiston Respublikasi shaharlarida, shaharga o'xshaydigan posyolkalarida va aholi yashaydigan qishloq joylarida, uy-joy binolarini hamda shaxsiy-xususiy uy-joylarni loyihalashga tatbiq qilinadi.

Javhar NURIDDINOV,
SHKB OYOXTTEB P va NB inspektori, oddiy askar.
Alisher RAHMONOV,
kichik inspektor, oddiy askar.

MAVSUM ISHLARI

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi sel, suv toshqini xavfi mavjud daryo va soylarda o'zan tozalash va qirg'oq mustahkamlash ishlari olib borilib, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholini xavfsiz joyga ko'chirish va evakuatsiya qilish bo'yicha profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Jamol BAHROMOV,
Ixtisoslashgan ko'p tarmoli boshqarmasi OYOXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.
Ro'zimatjon XALILOV,
P va NB inspektori, katta leytenant

O'RGANISH

"Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" doirasida respublika ishchi guruhi tomonidan Norin daryosi hududlari o'rganildi.

Ishchi guruh Norin daryosining qirg'oq dambasini mustahkamlash ishlari bilan yaqindan tanishib, kerakli tavsiyalar berdi.

Qahramon SATTAROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

Yashnobod tumani Farg'ona yo'li ko'chasida qurilayotgan "Assalom, Sohil" qurilish majmuasida tuman FV bo'limi boshlig'i podpolkovnik S.Saydumarov boshchiligidagi qurilish rahbari hamda ishchilar ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbirda ishchilarga qurilish davomida texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish zarurligi, bugungi kungacha tuman hududida 3 oy davomida 29 ta yong'in sodir bo'lganligi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 32 foizga ortganligi bu holatlarga fuqarolarning e'tiborsizligi va loqaydligi asosiy sabab bo'layotganligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida ishchilarga birlamchi yong'in o'chirish vositasidan foydalanish tartibi amalda bajarib ko'rsatildi.

Akbarali XAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

Buxoro tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarida o'rganishlar olib borildi. Avtomobillarga siqilgan yoqilg'i quyish shoxobchalarida olib borilgan o'rganishlar davomida Yong'in o'chirish qalqoni va vositalarining doimiy shay holatda saqlanishi, havzalarning suv bilan ta'minlanganligi, evakuatsiya yo'llarining shayligi o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

TUSHUNTIRISH

Tadbir davomida hudud ichki yo'llarida yong'in o'chirish avtomobillarining erkin harakatlanishini ta'minlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Shuningdek, soha xodimlari tomonidan ishchi-xodimlarga obyektlardagi birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Jasurbek JALOLOV,
Buxoro tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.



QAROR VA IJRO

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan Qoraqamish 2/4 dahasidagi yangi qurilayotgan binoda ishlayotgan quruvchi hamda ishchi-xizmatchilarga qurilish joylarida yong'in xavfsizligiga rioya qilish, favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda ularni bartaraf etish usullari to'g'risida tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Tadbir davomida qurilish ish-

lari olib borilayotgan binolarda ish yuritadigan quruvchilar yotoqxonalaridagi yashash sharoitlari, isitish tizimlari va ovqatlanish joylari o'rganilib, qonun buzilish holatlari bo'yicha maskan ishchilariga va rahbariyatiga tushunchalar berildi.

Jamshid PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi P va NB boshlig'i, podpolkovnik.

MUHIM MAVZU

Ma'lumki, yoz – cho'milish mavsumi hisoblanadi. Bunday paytda dam olish maskanlaridagi suv havzalarida kichik hajmli kemalar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu, o'z navbatida, kema haydovchilarining mas'uliyatini oshirish bilan bog'liq tadbirlar tashkil etishni taqozo qiladi. 18 yoshga to'lgan, yo'lovchi tashishda band bo'lgan kema haydovchiligiga 21 yoshga to'lgan shaxslar qabul qilinadi. I, II, III guruh va kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqiga ega bo'lish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishga nomzodlarni ta'lim tashkiloti-

ga qabul qilish bir qator talablar asosida amalga oshiriladi.

Kema haydovchisini boshqa ruhuha mansub kemalarni yoki kichik hajmli kemalarni boshqarishga qayta tayyorlash uchun hujjatlarga ko'shimcha ravishda kemani boshqarish huquqini beruvchi ruvoohnoma nusxasi ham taqdim etiladi.

Kema haydovchilarini tayyorlab, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

A.UMAROV,
Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.
R.MAMASIDIQOV,
bosh yuristkonsult.

XAVFSIZLIK UCHUN

Xorazm viloyati hududida shu yilning 1-choragi davomida 184 ta yong'in qayd qilingan bo'lib, ushbu yong'inlarda 2 nafar inson vafot etgan.

Sodir bo'lgan yong'inlarning 160 tasi aholi yashash xonadonlariga to'g'ri kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida viloyat aholisi sonining ortishi, turar-joylar qurilishi jadal rivojlanayotganini ko'rsatishimiz mumkin.

Viloyat FVB tomonidan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish borasida OAVda profilaktik chiqishlar doimiy olib borilmoqda.

Mirzojon KURBANOV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

Маърифат соати

БУЮК СОХИБКИРОННИНГ ҲАРБИЙ МАҲОРАТИ ҲАМДА ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ

Барчамизга маълумки, Амир Темур ва темурийлар даври давлатчилиги, маънавияти ўзининг салоҳияти, мазмуни, тарбиявий кучи ва таъсири билан халқимиз тарихида алоҳида ўрин тутди. Хусусан, Амир Темурнинг ҳуқуқий қарашлари ва қонунчилик тизими бутун Темурийлар салтанатида ҳаётнинг барча жабҳаларида ўз аксини топиб, оламушулу аҳамиятга эга бўлган. Жумладан, Буюк Инак йўли хавфсизлигини таъминлашга хизмат қилганки, бу билан савдо-тижорат ривожига катта ҳисса қўшган Шарқу Фарб мамлакатларини бир-бирига янада яқинлаштирган.


“Сипоҳийларимни хамиша жангга тайёр холда тутдим; ойлик ҳақларини сўратирмай вақтида берардим. Чунончи, Рум юришида сипоҳийларимга ўтган ва келажакда қиладиган хизматлари учун етти йиллик озиқ-овқатларини бирварака-йига бердим”, дейилади “Темур тузуклари”да. Бундан ташқари, Соhibкирон салтанатида касбу хунар ва маърифат аҳли мунтазам иш билан таъминланган. Сармояси қўлидан кетиб қолган савдогарларга ўз сармоясини қайтадан тиклаб олиши учун хазинадан старли микдорда олтин берилган. Дехқонлар ва раиятдан қайси бирининг дехқончилик қилишга қурби етмай қолган бўлса, унга экин-текин учун зарур уруғлик ва меҳнат қуроллари тайёрлаб берилган. Шунингдек, мунтазам армиянинг ташкил этилиши, сиёсий уюшув, ҳаётнинг барча жабҳалари, айниқса, иктисодиётнинг ғалаба қозониш йўлидаги стратегик вазифага бўйсундирилиши, мустахкам интизом, ҳар бир жангчи томонидан ҳарбий ҳаракатлар олиб бориш қоидаларига риоя қилиниши, дипломатик воситалардан усталик билан фойдаланиш каби омиллар рақиб устидан зафару ғалабани таъминлаган. Амир Темур ўзининг бутун ҳукмронлиги даврида бирон марта ҳам маълумиятга учрамаган.

Машҳур араб тарихчиси Ибн Арабшоҳ ёзганидек, “Темур қўркмас, шижоатли, ботир кишиларни итоат қилдирувчан бўлиб, жасоратли (киши)ларни, довиорак ва мардларни ёқтирар эди”.

Тарихий манбаларда Соhibкирон туғилган маскан Хўжа Илғор қишлоғи “Шахрисабз яқинида”, “Кешга қарашли”, “Шахрисабзга қарашли” ҳудуд сифатида келтирилади. Тарихшуносларнинг қайд этишича, бугунги кундаги Яккабоғ ва Шахрисабз туманлари ўрта асрларда Кеш воҳаси доирасида битта ҳудудий бирлик сифатида тилга олинган. Амир Темур таваллуд

топган даврларда Яккабоғ деб ном олган алоҳида маъмурий бирлик мавжуд эмас эди. Яккабоғ беклиги Кеш (Шахрисабз) вилоятига қарашли ҳудуд бўлган. Шу жиҳатдан қараганда, кўп вақтларда манбалар ва адабиётларда Амир Темур таваллуд топган жой – бугунги Яккабоғ туманидаги Хўжа Илғор қишлоғи Шахрисабз ва Кеш номлари билан ёнма-ён келади. Яккабоғ беклигининг пайдо бўлиши аштархонийлар даврига XVII–XVIII аср бошларига тўғри келади. Яккабоғ қисқа муддатларда Шахрисабз билан гоҳ сиёсий иттифоқда, гоҳ унинг таъсирида, гоҳ таркибда бўлган маълум даврлар ҳам мавжуд.

Тарихий ёдгорликларда Амир Темурга хос тўғрилиқ, саҳийлик, ростгўйлик, бағрикенглик, марҳаматлилик, меҳрибонлик, мурувватпешалик, содиқлик каби хусусиятлар ҳаётини лавҳаларда реал гавдалантирилган. Таъкидланган жиҳатларни чуқур таҳлил этиш Соhibкирон ҳаёти, серқирра фаолиятини тўлароқ билиб олишга хизмат қилади. Амир Темур тарихини ёритишга бағишланган манбаларни ўрганиш, қайта-қайта мутолаа қилиш уларда Соhibкиронга хос кўпдан-кўп хислатлар ўз ифодасини топганлиги борасида мулоҳаза юритиш имкониятини туғдиради. Соhibкирон мамлакат равнаки йўлида жонбозлик кўрсатган, ҳаёти хавф остида қолишига қарамай ҳар қандай шахсни эъзозлаган, кадрлаган ва муносиб тақдирлаган. Муайян кишининг мавжуд айбини ошқора этмаслик, унинг иззатини тўқмасликка қаттиқ риоя қилган. Тўхтамишга қарши сафарлардан бирида кўп саркардалар мардоналик ва ботирлик кўрсатиб турган бир чоғда Бурхон ўғлон ихтиёрини қўлдан бериб, жанг майдонини ташлаб қочган эди. Соhibкирон унинг бу нолайик ҳаракатидан воқиф бўлса-да, чингизийзода йигитнинг ай-



бини ёпади, шаънини сақлаб қолади. 1398 йили Кобулнинг Шимоли-Шарқидagi тоғли вилоят томон Рустам мирзо қатори Бурхон ўғлон ҳам катта қўшиққа бош қилиб юборилади. Соhibкирон Бурхон ўғлон ёрдамида бирор иш амалга оширилди, унинг мардоналиги билан бирор муҳим ғалаба қўлга киритилар деган фикрда эди. Аммо таассуфлар бўлсинки, Бурхон ўғлоннинг юраксизлиги бу гал ҳам унга панд беради, душманининг қорасини кўрмай туриб, совутини ташлаб қочиб кетишга мойиллик кўрсатади. Соhibкирон қўрқоқ ва юраксиз лашкарбоши ўрнига кейинчалик шахсий тарбияси туфайли етук саркарда бўлиб етишган Мухаммад Озодни тайинлашда янглишмаган эди.

Қаҳрамонлик, жавонмардлик ва айниқса, шахсий матонат йигитлик пайтида маълум сабабга кўра жисмонан шикаст топган Амир Темур учун ҳам бегона хислат эмас. Савашларда жаҳонгир кўрсатган ботирлик ва жасурлик, сабот ва матонат халқимизнинг қалб тўридан ўрин олган, тилларда дoston бўлган, турли афсона ва ривоятларнинг туғилишига сабаб бўлган эди.

Дарвоқе, шу ўринда қайд этиш лозимки, Амир Темур сипоҳлари таркиби турли-туман бўлиб, ҳарбий хизматга бир неча минг аёллар ҳам жалб қилинган хусусида ҳам тарихий манбаларда келтирилган. Бу ҳақда Ибн Арабшоҳ шундай ёзади: “Темур лашкарлари орасида аёллар ҳам бўлиб, улар душман билан бўлган тўқнашувларда матонат кўрсатардилар. Найза санчиш, қилч ўйнатиш ва камондан мўлжалга олишда мохир эркаклардан кўра ҳам ортиқроқ иш қилардилар. Аёлларнинг 1395 йил Тўхтамишхонга қарши Шимолий

Кавказдаги Терек дарёси бўйидаги жангга ҳам маълум даражада иштирок этганлиги ҳам ёзиб қолдирилган. Амир Темур саройида бўлган испан эчиси Клавихонинг маълумотларига қараганда, жангдан олдин Темур Тўхтамишхоннинг хиравули (олдинги қисм)ни янчиб Сунжи дарёсини жанг билан кечиб ўтади. Эртаси кун қулай позиция қидирган Соhibкирон Терекнинг ўнг соҳили бўйлаб юра бошлайди. Дарёнинг сўл қисмида бўлган Тўхтамишхон ўз рақибининг дарёдан ўтишига йўл қўймаслик учун қоровул ажратади ва бу соқчи қисм дарёнинг чап қирғоғи ёқалаб Темур кўшинини тинимсиз кузатиб боради. Иккала кўшин уч кун давомида шу алпозда аста-секин ҳаракат қилиб боради.

Учинчи кун Амир Темур лашкаргоҳда бўлган аёлларга дубулғалар кийишни ва жангчилар ўрнини эгаллашни, эркакларга эса иккитадан олти лашкаргоҳни тезда тарк этишни буюради. Қароргоҳда эркаклар кўринишида бўлган аёллардан ўзга куч қолмайди. Эркаклар қиёфасидаги “жангчилар”ни кузатишда давом этган Тўхтамишхон лашкарлари Амир Темур ва унинг асосий кўшини кечув жойига қайтганлигидан беҳабар қолади. Шу тариқа, тун бўйи Амир Темур кўшини Тўхтамишхон соқчи гуруҳининг кўзини шамғалат қилиб Терек дарёсидан кечиб ўтишга муяссар бўлади. Мазкур жангга Амир Темур ғалабага эришади.

Шуни ҳам айтиш лозимки, 1379 йили Урганчи муҳосара қилиш чоғида Хоразм ҳукмдори Юсуф Сўфи Амир Темурни яқма-яқма олишувга қақиради. Соhibкирон рақиб давъатини иккиланмасдан қабул қилади. Бироқ Амир Темурнинг шиддат билан жанггоҳдаги ҳолати-

ни кўриб, ўз сўзидан қайтган Юсуф Сўфи Соhibкирон билан юзма-юз жанг қилишдан қўрғонда қолишни маъқул кўради. Ушбу воқеадан бироз фурсат ўтмай, Термиздан келтирилган, тилни ёрувчи қовунларни Амир Темур дастурхонига тортишади. Соhibкирон тарвузларни ўз ғаними билан баҳам кўрмоққа қарор қилади ва уларнинг бир қисмини олтин лаганларда Юсуф Сўфига юборади.

Бир сўз билан айтганда, Амир Темур ва темурийлар қолдирган бетакрор маънавий мерос бугунга келиб инсониятнинг умумий бойлигига айланган. Соhibкирон шахси нафақат миллатимиз, балки умуминсоният аҳамиятга молик истиснод ва инсоний фазилатлари туфайли боқий саналади. Буюк бунёдкор, маданият ва илм-фан хомийси, енгилмас саркарда, адолат байроқдори Амир Темур ҳазратлари инсониятнинг даҳо фарзандларидан бири ҳисобланади. Айниқса, унинг ҳарбий санъати, яъни стратегияси ва тактикасидан ҳақли равишда мағрурланамиз. Ҳарбий санъат унга буюк саркарда шухратини келтирди. Унинг жанглари жаҳоннинг кўпгина ҳарбий академияларида ўрганилди ва ўрганилмоқда. Ҳарбий қурилиш борасида ўз замондошларидан ўзиб кетган Амир Темур ўз даврида армияни яратиб ва тақомиллаштириш борасида мукаммал тизимни ишлаб чиқиб, уни мохирлик билан амалга оширган. Соhibкироннинг жанггоҳларни танлаш санъати, уруш усуллари ва тактикаси, лашкар тутиш ва сипоҳийларни сафлаш қоидаси “Темур тузуклари” китобида бағавсил ёритилган.

Саҳифани “Vaziyat” муҳбири Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

Автоматлаштирилган машиналар, бошқача айтганда, роботлар хавфли ҳудудларда ёки фабрикаларда одамлар ўрнига ишлаши мумкин. Роботлар ташқи кўриниши, хатти-ҳаракати ва идрокида одамларга жуда ўхшаш бўлиш эҳтимоли юқори. Ҳозирда олимлар инсон шаклидаги роботларни яратишга ҳаракат қилмоқда. Хаттоки, улар инсон учун мушкул ва хатарли бўлган ишларни ҳам бажармоқда. Сир эмаски, бу борадаги тадқиқотлар XX асргача бошланган. Эртак даврдан буюн роботлар бир кун келиб инсон хатти-ҳаракатига тасдиқ қилиб, инсон ишларини бажариши башорат қилинган. Шундай экан, бугунги кунда робототехника жадал ривожланаётган соҳа бўлиб келмоқда. Технология тез ривожланар экан, робототехника ҳам технология билан чамбарчас боғлиқ. Технологияларнинг ривожланиши билан тадқиқот ва ишланмалар ўзгариб, ривожланмоқда, бунинг натижасида роботларни қўллаш соҳаси ҳам ўсиб бормоқда. Масалан, уйларида, корхоналарида ва ҳарбий соҳаларда қўлланилмоқда. Бу шубҳасиз, инсонлар меҳнатини энгил қилмоқда.

ПАРВОЗ РОБОТЛАРИ

Дунёда сирпанувчан роботлар унчалик кўп эмас, улардан бири кўп режимли ювиш ва сирпаниш роботидир. Роботнинг тўрта оёғи бор, ҳар бир оёғида битта филдирак (филдиракларга куч қўлланмайди). Робот юра олади ёки бу филдиракни одатдагидек айлантира олади. Яна бир турдаги робот Плен роботи кичик скейборд ёки конкида учуши мумкин.

ТОҚҚА ЧИҚИШИ

Роботнинг тепаликка вертикал сирт билан чиқиши учун олимлар кўп куч сарфлаб, турли усуллардан фойдаланишган. Ёндашувлардан бири тоққа чиқаётган одамнинг ҳаракатларини такрорлаш эди, тананинг масса марказини текислаш ва ҳар бир ҳаракат билан левергени қўлга киритиш. Бундай роботларга бир мисол Калифорниядаги Стенфорд университетидан доктор Руиҳианг Чжаннинг Капучини роботидир.

СУЗУВЧИ РОБОТ

Баъзи балиқларнинг сузиш пайтидаги ҳаракатланиш самардорлиги 90 фоиздан ошиши мумкинлиги тахмин қилинган. Бундан ташқари, у сунъий қайиқ ёки сув ости кемасидан яхшироқ тезлашади

РОБОТОТЕХНИКА САНОАТИ ВА СИНОАТИ



ва улар камроқ шовқин қилади ва сувни камроқ безовта қилади. Шу сабабли, сув ости роботларини ўрғанувчи олимлар бу ҳаракат турини такрорлашни хоҳлашади. Бундай роботларнинг ёрқин мисоллари – Эсдех компьютер фанлари университетидан Г 9 Фиш Робот ва Филд Роботис институтидан Туна Роботи. Бу роботлар балиқларнинг сувдаги ҳаракатини таҳлил қилиш ва математик модель яратиш учун мулжалланган. Германиянинг Фесто компаниясининг Ақуа Пенгуин робот пингвинларнинг учли танасини такрорлайди ва ҳаракат қилиш учун пингвинга ўхшаш “эшкак оёқлари” дан фойдаланади. Фесто компанияси медуза ҳаракатига тақлид қилувчи Ақуа Желли роботини яратди.

ЮРАДИГАН РОБОТЛАР

Бир нечта роботлар одам каби икки оёқда юра олади, лекин уларнинг ҳеч бири одамдек мустаҳкам ҳаракат қила олмайди. Инсоннинг юриш қобилияти буйича кўплаб тадқиқотлар ўтказилган. Роботлардан бири итга ўхшаб яратилган. Уларнинг оёқлари икки оёқлиларга қараганда кўпроқ бўлса-да, уларни қуриш осонроқ эди. Юрадиган роботнинг ҳаракатланиш тизими бошқа роботларга нисбатан ҳар қандай нотекис ерларда юра олди, шунингдек, у мобилроқ ва энергия тежамкор эди.

ГИЛДИРАКЛИ РОБОТЛАР

Оддийлик ва кўпчилик учун 4 филдирак, узлуксиз платформа билан жиҳоз-

ланган. Баъзи олимлар бир ёки иккита филдиракда ҳаракатланадиган роботларни ўз ичига олган, янада мураккаб турдаги мобил роботлар яратишга ҳаракат қилишади. Бу роботлар сонини камайтиради ва бундан ташқари, бир ёки иккита филдиракли роботлар учун 4 филдиракли робот қила олмайдиган чекланган ҳудудларда ҳаракатланади.

СФЕРИК “ОРБ БОТ” РОБОТИ

Олимларнинг яна бир ғояси роботларни тўлиқ ҳаво шарига киритиш. Тадқиқотчиларнинг фикрича, робот айланади ёки робот жойлашган шарнинг ташқи қобиғи айланади, ичи ҳаракатланмайди. Ушбу турдаги роботлар орб бот ёки балл бот, деб аталади.

КЎЧМА РОБОТ

Палетли роботлар эса янада яхши тортишни таъминлайди. Занжирли механизм ҳаракатланаётганда юзлаб филдираклардан ясалган таёқчани ушлаб туради. Шунинг учун у чет элларда ишлатиладиган соҳалардан бири. Энг кўп ишлатиладиган соҳалардан бири ҳарбий соҳадир. Ҳарбий операциялар кўпинча очиқ ҳавода ўтказилади ва палетли роботнинг оддий филдираклар билан бориши қийин бўлган.

Интернет материаллари асосида Рухона СОЙИБЖОНОВА тайёрлади.

БИЛАСИЗМИ?

1. Нимага кўзларимизни юмган ҳолда ухлаймиз?

Бунинг бир нечта сабаблари бор:

кун давомида чарчаган кўзларимиз бошқа тана аъзоларимиз каби уйқу пайти дам олади.

Уйқу давомида кўзимизга чанг ёки бошқа нарсалар киришининг олди олинади. Уйқу пайти кўзларини юмиб ухлайдиган кишилар кўзлари очиқ ухлайдиганлардан кўра яхшироқ дам олишади.

2. Нимага баъзи инсонлар тирноқларини тишлаш-ни ёқтиради?

Кўп ҳолларда атрофимиздагилар, асосан кичик ёшлилар, тирноқларини тишлаётганини гувоҳи бўламиз. Бунинг сабаби эса бу машғулот улар учун стресснинг турли шакллари билан курашишга ёрдам беради. Масалан, кимдир зерикканида тирноқларини тишлаш орқали ўзини банд қилади. Яна кимдир эса муаммолардан чалғиш учун буни

амалга оширади. Лекин барча ҳолатларда бу машғулот миямиз эътиборини бошқа ерга қаратиш вазифасини бажаради.

3. Нимага никоҳ маросимида куёв ва келин бир-бирларини бармоқларига узук тақиб қўйишади?

Бир неча йиллар давомида никоҳ маросимида келин-куёв бир-бирларини бармоғига узук тақиб қўйиш одатга айланган. Бунинг сабаби эса уларнинг тақдирлари бирлаштирилганини белгиси ҳисобланади. Бундан ташқари, кўпгина мамлакатларда тўйдан кейин никоҳ узугини тақмаслиги турмуш ўртоғига нисбатан катта ҳурматсизлик белгиси ҳисобланади.

4. Нимага кўзларимиз ҳар хил рангдан бўлади?

Қорачиғимизга ранг берувчи пигмент – меланин деб аталади. У кўз қорачиғининг ички қисмини қоплаган бўлиб, унинг кўп ёки озлигига қараб кўзларимиз турли хил



рангдан бўлади. Яъни, агарда меланин миқдори кам бўлса, у ҳолда кўзларимиз оч рангдан бўлади. Аксинча, меланин пигменти кўп бўлган ҳолларда эса, кўзларимиз ранги тўқ бўлади.

5. Нимага лимон инсон учун энг фойдали мева ҳисобланади?

Флорида университетидан олиб борилган узоқ йиллик тадқиқотлар натижасида лимон инсон учун энг фойдали мева деб топилди. Бунга асосий сабаб, лимон таркибида овқат ҳазм қилиш, қон айланиш ва нафас олиш тизимларини яхшиловчи С, Б6 ва Д

витаминалари мавжуд. Бундан ташқари, доимий равишда лимон истеъмол қилиш саратон, буйракда тош ҳосил бўлиши каби жиддий касалликларнинг олдини олиши ҳам исботланган.

6. Нимага ёш ўтган сари сочларимизга оқ тушади?

Ёш ўтган сари сочга оқ тушиши деярли барча учун табиий ҳолат. Бунинг энг асосий сабаби, ёш ўтган сари бошқа тана аъзоларимиз каби сочлар ҳам қарийди. Натижада сочлардаги ҳужайралар бирин-кетин нобуд бўлади. Бу эса сочламизга керакли витаминлар тарқалишини тўхтатиб қўяди. Қарабсизки, сочлар аста-секин оқ тусга кириб боради. Сочларимизга оқ тушишини тезлиги эса биз ейдиган овқатлар қанчалик витаминга бой экани ва сочлар парваришига боғлиқ. Яъни, уларга яхши парвариш берилса, соч оқаришини бироз секинлаштиришимиз мумкин.

Бону ШОДИЕВА,
Чирчиқ давлат педагогика
университети талабаси.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
М.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган

ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқиротлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нусха